

???????Murodxon ibn Olimxon



Murodxon ibn Olimxon

(?-1845)

(1845 yil 7 kun)

Minglar sulolasidan bo'lgan Qo'qon xoni. **Olimxon**ning o'g'li. Isfara hokimi Sotiboldi dodxoh Qo'qon xoni **Sheralixonga** qarshi fitna uyushtiradi, bu ishga Murodxon ham tortiladi. Ular Musulmonqul mingboshi qirg'izlar isyonini bostirish uchun ketganidan foydalanib xonni asirga oladilar va Murodxonni **xon** deb e'lon qiladilar. 3 kundan so'ng Sheralixon o'ldirilgan, saroyi talanib, o'g'illari qamoqqa olingan. Qo'qon aholisi taxt o'zgarishidan norozi edi, buning ustiga yangi xon o'zini Buxoro amirining noibi deb e'lon qilgan. Musulmonqul bu voqeadan xabardor bo'lib o'z qabiladoshlari bo'lgan qipchoqlarni to'plab, Murodxonga qarshi hujum qilgan. Ular Namangan begi **Xudoyorxonni** o'zlari bilan olib kelishadi. Qipchoqlar uni oq kigizga o'tqazib xon qilib ko'taradilar. Musulmonqul qo'shini Murodxonning qirg'izlardan iborat unchalik katta bo'lmagan qoshinini tezlik bilan yengib, o'rdasini egallab oladi va atigi 7 kun xon bo'lgan Murodxon qatl etiladi.

2023-11-24 10:56:25